

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “MENI BEZOVTA QILMA HAMISHA, HAR ON...” SHE’RI TAHLILI

*Nurmaxmatova Firuza Rasulovna*

*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari*

*Universiteti Ingliz filologiyasi*

*Fakulteti 2-bosqich talabasi*

*feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynber XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakili, o‘zbek adabiyotining yangi davrda gullab-yashnashi uchun beqiyos xizmat qilgan, milliy adabiyotimizni butun dunyoga tanitgan atoqli ijodkordir. Uning ijodiyot yo‘li milliy adabiyotimizda alohida bosqich hisoblanadi. Shoir she‘riyat yo‘lida inson qalbi, davr ruhi, zamonaviy asr muammolari va ma‘naviy izlanishlarni teran falsafiy qarashi bilan batafsil tahlili etgan. Faynberg faqatgina lirik shoir emas, ruhiy jarayonlarni nozik sezadigan, inson qalbi tubidagi yashirin dunyosini badiiy ifoda eta oladigan mahoratli ijodkor sifatida qadrlanadi. U yashagan davr murakkab ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolarga to‘lib toshgan davr edi. Jamiyatda, odamlar hayotida shovqin-suron, tezlik, tashqi faollik kundan kunga kuchayib borar, insonlar esa ichki olamlarini egallab olayotgan sukunat va yog‘izlik hissi bilan yuzma-yuz kelar edilar. Ana shunday ruhiy va tarixiy sharoit Faynberg ijodining yo‘nalishiga aniqlik kiritadi. Uning she‘rlarida inson va jamiyat munosabati, tashqi hayot va ichki kechinmalar orasida yuzaga kelayotgan ziddiyatli jarayonlar, muloqot va begonalik, sukunat va bezovtalik kabi bir biriga qarama-qarshi tushunchalar o‘zaro bog‘liq holda ifodalab beriladi. Faynberg falsafasiga xos jihat shuki, u hayotiy detallar orqali teran falsafiy xulosa beradigan asarlarni yarata oladi. U atrofidagi reallikda yuz berayotgan manzaralarni teran ma‘naviy mazmun-mohiyat bilan boyita oladi. U asarlarida kundalik hayot unsurlari, jamiyatdagi mayda holatlar, shaxsiy kechinmalarni qo‘llaydi. Biroq bularning barchasi uning ijodiyotida keng ma‘noga ega bo‘lib, inson mavjudligining murakkab savollarini o‘rtaga tashlaydi. Shoir uchun she‘r nafaqat badiiy shakl, balki hayot bilan muloqot, dunyoni anglash, qalbgga ozor berib kelayotgan iztiroblarni ifodlash vositasi hamdir. Zamonaviy inson kundalik hayotiga xos bo‘lgan xususiyat bu uning doimiy ravishda axborot oqimi, tezkor o‘zgarishlar, shovqin va tashqi faoliyat ichida yashashidir. Ammo bu shiddatli hayot ruhiy tarzi ruhiy bo‘shliq, yolg‘izlik va ma‘naviy bezovtalik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Faynberg asarlarida aynan mana shu dolzarb masalarga befarq emasligini ko‘rsatadi. Uning asarlarida insonning tiriklik hissini yo‘qotmaslik, muloqotga ehtiyoj, hayotiy harakat va ichki izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada Aleksandr Arkadevich Faynbergning „Meni bezovta qil hamisha, har on“ she‘ri tahliliga bag‘ishlangan.

**Abstract:** Alexander Arkadevich Feinber is a prominent representative of 20th-century Uzbek literature, an outstanding creator who made an incomparable contribution to the flourishing of Uzbek literature in the new era, and introduced our national literature to the whole world. His creative path is a special stage in our national literature. The poet, through his poetry, analyzed the human soul, the spirit of the era, the problems of the modern age, and spiritual searches in detail with his deep philosophical vision. Feinberg is valued not only as a lyric poet, but also as a skilled creator who subtly perceives spiritual processes and can artistically express the hidden world of the human soul. The era in which he lived was a time filled with complex social, political, and cultural problems. In society, in people's lives, noise, speed, and external activity were increasing day by day, while people were faced with a feeling of silence and loneliness that was taking over their inner world. Such spiritual and historical conditions gave clarity to the direction of Feinberg's work. In his poems, the relationship between man and society, the conflicting processes that arise between external life and internal experiences, communication and alienation, silence and restlessness, such contradictory concepts as interdependence, are expressed. A characteristic feature of Feinberg's philosophy is that he can create works that give a deep philosophical conclusion through life details. He can enrich the scenes taking place in reality around him with deep spiritual content. He uses elements of everyday life, small situations in society, and personal experiences in his works. However, all this has a broad meaning in his creativity, raising complex questions of human existence. For the poet, poetry is not only an artistic form, but also a means of communicating with life, understanding the world, and expressing the suffering that hurts the soul. A characteristic feature of the daily life of a modern person is his constant flow of information, rapid changes, noise, and external activity. But this intense spiritual lifestyle causes problems of spiritual emptiness, loneliness, and spiritual restlessness. In his works, Feinberg shows that he is not indifferent to these pressing issues. In his works, the importance of not losing a person's sense of aliveness, the need for communication, vital movement, and inner search play an important role. This article is devoted to the analysis of Alexander Arkadyevich Feinberg's poem "Always, Every Moment."

**Аннотация:** Александр Аркаевич Файнберг — выдающийся представитель узбекской литературы XX века, выдающийся творец, внесший несравненный вклад в расцвет узбекской литературы в новую эпоху и познакомивший весь мир с нашей национальной литературой. Его творческий путь — особый этап в истории нашей национальной литературы. Поэт, посредством своей поэзии, детально анализировал человеческую душу, дух эпохи, проблемы современности и духовные поиски, обладая глубоким философским видением. Файнберг ценится не только как лирический поэт, но и

как искусный творец, тонко улавливающий духовные процессы и умеющий художественно выразить скрытый мир человеческой души. Эпоха, в которой он жил, была временем, наполненным сложными социальными, политическими и культурными проблемами. В обществе, в жизни людей день за днем возрастали шум, скорость и внешняя активность, в то время как люди сталкивались с чувством тишины и одиночества, которые захватывали их внутренний мир. Подобные духовные и исторические условия прояснили направление творчества Файнберга. В его стихах выражаются взаимоотношения человека и общества, конфликтные процессы, возникающие между внешней жизнью и внутренним опытом, общение и отчуждение, молчание и беспокойство, такие противоречивые понятия, как взаимозависимость. Характерной чертой философии Файнберга является его способность создавать произведения, дающие глубокий философский вывод через детали жизни. Он может обогащать происходящие в реальности события глубоким духовным содержанием. В своих произведениях он использует элементы повседневной жизни, мелкие ситуации в обществе и личный опыт. Однако всё это имеет широкий смысл в его творчестве, поднимая сложные вопросы человеческого существования. Для поэта поэзия — это не только художественная форма, но и средство общения с жизнью, понимания мира и выражения страданий, ранящих душу. Характерной чертой повседневной жизни современного человека является постоянный поток информации, быстрые изменения, шум и внешняя активность. Но этот интенсивный духовный образ жизни порождает проблемы духовной пустоты, одиночества и духовного беспокойства. В своих произведениях Файнберг демонстрирует равнодушие к этим насущным проблемам. В его работах важную роль играют важность сохранения чувства жизни, потребность в общении, жизненном движении и внутреннем поиске. Данная статья посвящена анализу стихотворения Александра Аркадьевича Файнберга «Всегда, каждое мгновение».

**Kalit so‘zlar:** Aleksandr Arkadevich Faynberg, zamonaviy o‘zbek she’riyati, lirik qahramon, ruhiy bezovtalik, ichki sukunat, tashqi shovqin, muloqot ehtiyoji, istehzo, falsafiy tafakkur, she’r va hayot munosabati, poetik ifoda, zamon ruhi, inson ruhiyati, badiiy g‘oya, ma’naviy izlanish.

**Keywords:** Alexander Arkadevich Feinberg, modern Uzbek poetry, lyrical hero, spiritual unrest, inner silence, external noise, need for communication, irony, philosophical thought, relationship between poetry and life, poetic expression, spirit of the times, human spirit, artistic idea, spiritual search.

**Ключевые слова:** Александр Аркадьевич Файнберг, современная узбекская поэзия, лирический герой, духовное беспокойство, внутреннее молчание, внешний шум, потребность в общении, ирония, философская мысль,

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПОЭЗИИ И ЖИЗНИ, ПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ, ДУХ ВРЕМЕНИ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ДУХ, ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИДЕЯ, ДУХОВНЫЙ ПОИСК.

Aleksandr Arkadevich Faynberg ijodida soʻz va hayot oʻrtasidagi murakkab munosabat alohida eʼtiborga molik. U sheʼrni mutlaqo haqiqat emas, balki insonning hayotiy tajribasi bilan uzviy bogʻliq boʻlgan badiiy ifoda shaklida talqin etgan. Shu boisdan uning asarlarida baʼzan istehzo, baʼzan ichki iztirob uygʻunlashadi. Bu holat shoirning voqelikka nisbatan tanqidiy va ayni paytda samimiy munosabatini koʻrsatadi.

Shoir sheʼriyatiga xos boʻlgan noyob jihat shundaki, u tashqi manzaralar vositasida ichki ruhiy holatni yoritadi. Oddiy kundalik hayotdan olingan detallar, kundalik voqelik unsurlari, baʼzan hattoki mayda va kulgili tuyulgan holatlar ham chuqur falsafiy maʼno kasb etadi. "Meni bezovta qil hamisha, har on" misralari bilan boshlanuvchi sheʼri ham shoirning mahorat bilan falsafiy va ruhiy qatlamlarni ochib bergan asarlaridan sanaladi. Mazkur sheʼr tashqaridan qaraganda murojaat, iltimos hatto talab ohangida yozilganga oʻxshaydi. Ammo mazmunan u inson qalbidagi chuqur iztiro, gʻam, yolgʻizlikdan qochish istagi, hayotning sunʼiy shovqinlari bilan maʼnaviy ehtiyoj oʻrtasidagi ziddiyatni ifodalaydi.

Meni bezovta qil hamisha, har on.

Uchib kel. Tinimsiz valdira, vaysa.

Kim kimni, nimaga, qayerda, qachon...

Joʻyali, joʻyasiz jagʻirgin, javra.

Xoh iyul, xohi mart, xohi dekabr,

Soʻzlayver, janubda dam ol, qaytib kel.

Nimani istasang, barini gapir,

Tansiq ovqatlarni maqtab, aytib kel.

Adabiy burgalar sakrashin joʻshib,

Taʼrifla, misoli notadek chizgin.

Shampan och, tilak ayt qadahga qoʻshib,

Latifalar bilan ichakni uzgin.

Sim qoq. Eshigimni tepib kirib kel,

Bemahal xoʻrozdek qichqir har nafas.

Xokkey, kino, turqing bilan zada qil,

Faqat sheʼr bilanmas, sheʼr bilan emas.

Avvalroq taʼkidlaganimizdek, sheʼr boshidan oxirigacha murojaat shaklida bitilgan. Lirik qahramon goʻyoki kimnidir-ehimol yaqin insonini, ehtimol jamiyatni, ehtimol shoirlik ilhomini-tinimsiz bezovta qilishga daʼvat etadi. "Meni bezovta qil hamisha, har on. Uchib kel. Tinimsiz valdira, vaysa..." Bu oʻrinda "bezovta qil" degan ibora tashqi maʼnoda salbiydek tuyulsa ham, aslida u ruhiy tiriklik, hayotiy

harakat va muloqot ehtiyojini anglatadi. Lirik qahramon uchun sukut-o'limga yaqin holat. Shuning uchun u shovqinni, hatto ma'nosiz gaplarni ham afzal ko'radi: "Jo'yali, jo'yasiz jag'irning, javra." Bu satrlarda shoir mantiqlimi mantiqsizmi gapirishning o'zi lirik qahramon uchun qadrliligi ekanini aytadi. Sababi so'z mavjudlikning eng katta belgisi, so'z bor joyda hayot belgilari ko'rinadi.

She'rda vaqt va makon tushunchasi ham nisbiylikni kabs etadi: "Xoh iyul, xoh mart, xohi dekabr. Bu satrlar orqali fasllar sanalmagan bo'lsa-da ular orasida farq yo'qdek tasvirlangan. Demak, lirik qahramon uchun vaqtning aniq chegarasi ahamiyatsiz. Muhimi-muloqotning uzluksizligi. Fasl o'zgaradi, ammo ichki ehtiyoj o'zgarmaydi." Janubdan dam ol, qaytib kel" misrasi esa zamonaviy hayot ritmini eslatadi. Bu yerda sayohat, hordiq, tashqi qulaylik tilga olinadi. Lekin baribir asosiy talab-qaytish va gapirish. Demak, tashqi harakat ichki bo'shliqni to'ldira olmaydi.

She'rning keying bandlarida kinoya kuchayadi: "Tansiq ovqatlarni maqtab, aytib kel. Adabiy burgalar sakrashin jo'shib..." "Tansiq ovqatlar"- moddiy ne'matlar rasmzi bo'lsa, "adabiy burgalar" iborasi adabiy muhitdagi mayda gap, hasad, asossiz, tanqid va sun'iy shov-shuvlarga ishora beradi. Bu jarayon shoir tomonidan kuchli istehzo qo'llash yordamida ochib beriladi. Go'yoki u bularning barini ko'rib turibdi va ulardan charchagan. "Shampan och, tilak ayt..." satrlari esa soxta tantana, yuzaki quvonch manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida gavalantiradi. Kulgi, latifa, ichakni uzadigan hazil – bularning barcha-barchasi tashqi ko'rinish. Ammo she'rning so'nggi misrasi butun mazmunni keskin o'zgartirib yuboradi: "Faqat she'r bilanmas, she'r bilan emas."

She'rning oxirgi satri asarning kalit nuqtasi hisoblanadi. Lirik qahramon she'r uni bezovta qilmasligini, qancha bemanigarchilik bo'lsa-da hayot muammolari bilan ovora bo'lishni xohlashini aytadi. Xuddi shoir bu o'rinda o'z she'riyatini ham tanqid ostiga olayotgandek. U hayot o'zi murakkabliklarga to'la, uni she'r deb bir nuqtaga chegaralab qo'yma deydi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr arkadevich Faynbergning "Meni bezovta qil hamisha, har on..." she'ri insondagi ichki bo'shliqdan o'zini olib qochish istagi, muloqotga muhtojlik va zamonaviy hayotning sun'iy shovqinlariga nisbatan istehzoli munosabatni ifodalovchi asardir. Aleksandr Faynberg bu she'ri orqali nafaqat shaxsiy kechinmalarini, balki davr muammolarini ham aks ettiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Aleksandr Arkadevich Faynberg. She'rlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1975.
3. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2002.

4. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5-jild. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
7. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
8. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
9. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
10. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>

